



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “25” aprel

BUYRUQ № 53

Toshkent sh.

**“Kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlarda qurilish
faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Tartib”ni
tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, rasmiy statistika sohasida “Kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlarda qurilish faoliyati ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlarda qurilish faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Tartib” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2022- yil 25- iyuldagi “Kalit ostida” yoki sotish uchun mo‘ljallangan obyektlarda qurilish faoliyati tanlanma kuzatuvini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha Tartib”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 28- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb topilsin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Direktor

B. Begalov